

**MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI TAMINLASH:
ZAMONAVIY STANDARTLAR VA BAHOLASH
MEZONLARI**

Hamzayeva Dildora Muhtorboy qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim” kafedrası magistri

E-mail: dildorahamzayeva@gmail.com

UDK: 373.24

<https://orcid.org/0009-0006-1905-5719>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashning zamonaviy standartlari va baholash mezonlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida sifat monitoringini takomillashtirish va samarali baholash yondashuvlarini aniqlashdan iborat. Ishda tahlil, solishtirish hamda kuzatish metodlari qo'llanilgan. Olingan natijalar ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda baholash mezonlarini takomillashtirish muhim omil ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, ta'lim sifati, sifatni baholash mezonlari, zamonaviy standartlar, pedagog kompetensiyasi, raqamli monitoring, moddiy-texnik baza, STEAM va sensorik muhit, ota-ona hamkorligi, sifatni nazorat qilish.*

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ КАЧЕСТВА ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ СТАНДАРТЫ И
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ**

Аннотация: *В данной статье проанализированы современные стандарты и критерии оценки обеспечения качества дошкольного образования. Цель исследования совершенствование мониторинга качества в образовательном процессе и выявление эффективных подходов к оценке. В*

работе использованы методы анализа, сравнения и наблюдения. Полученные результаты показывают, что развитие профессионального потенциала педагогов и совершенствование критериев оценки являются важными факторами повышения качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, качество образования, критерии оценки качества, современные стандарты, педагогическая компетентность, цифровой мониторинг, материально-техническая база, STEAM и сенсорная среда, родительское сотрудничество, контроль качества.

ENSURING THE QUALITY OF PRESCHOOL EDUCATION: MODERN STANDARDS AND ASSESSMENT CRITERIA

Abstract: This article analyzes modern standards and assessment criteria for ensuring the quality of preschool education. The purpose of the study is to improve quality monitoring in the educational process and to identify effective assessment approaches. The research employed methods of analysis, comparison, and observation. The results indicate that developing the professional competence of educators and improving assessment criteria are important factors in enhancing the quality of education.

Keywords: Preschool education, quality of education, quality assessment criteria, modern standards, pedagogical competence, digital monitoring, material and technical base, STEAM and sensory environment, parental cooperation, quality control.

KIRISH: Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida kelajak avlodni tarbiyalashda intellektual salohiyat hamda bilimlarni ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama yuksak rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunda davlatimizning siyosatini asosiy va ustivor yo'nalishiga aylanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini yanada mustaxkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish hamda bolalarni har tomonlama yuksak, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish maqsadida hozirgi kunda bir qator qonunlar, farmonlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan.

Shulardan biri Maktabgacha va maktabgacha ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-14-son Farmonida davlat boshqaruvi jarayonlarida samaradorlik, tartib-intizom va ochiqlikni kuchaytirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan. [1] Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim sohasida ham boshqaruvni yangicha tamoyillar asosida tashkil etishni talab qiladi. Sifatni ta'minlash jarayonida zamonaviy pedagogik standartlar, aniq ko'rsatkichlarga asoslangan baholash mezonlari va raqamli monitoring tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi.[2] Bolalarning rivojlanish dinamikasi, pedagoglarning malakasi, ta'lim muhiti, xavfsizlik talablari va oilaviy hamkorlik maktabgacha ta'lim sifatini baholashda asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi. [3] Farmonda ilgari surilgan boshqaruvni optimallashtirish prinsiplariga tayangan holda, maktabgacha ta'lim tizimida shaffof, o'lchab bo'ladigan va doimiy takomillashib boradigan sifat nazorati tizimini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. [1,4]

Bugungi kunda sifatni ta'minlash jarayonida quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish. Maktabgacha ta'lim dasturlarining davlat talablari bilan uyg'unligi, rivojlantiruvchi metodikalar, yosh xususiyatiga mos mashg'ulotlar tashkil etilishi sifatning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. [2,5] **Baholash mezonlarining aniqligi.** Ta'lim jarayonini baholashda

pedagog malakasi, bola rivojlanish natijalari, sanitariya-gigiyena me'yorlari, tarbiyaviy muhit sifati, oilaviy hamkorlik darajasi kabi mezonlar qo'llaniladi. [3,6] Baholashning aniq indikatorlarga asoslanishi natijadorlikni oshiradi. **Raqamlashtirilgan monitoring tizimi.** PF-14 farmonida belgilangan raqamli boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limda ham elektron monitoring tizimlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. [1,7] Bu jarayon ta'lim sifati bo'yicha tezkor tahlil, muammolarni aniqlash va natijalarni kuzatib borishni osonlashtiradi. Sifatli ta'limning eng muhim omillaridan biri pedagoglarning malakasi hisoblanadi. Zamonaviy metodika, innovatsion o'qitish usullari, bolaga individual yondashuv va kommunikativ ko'nikmalar maktabgacha ta'lim sifati darajasini belgilaydi. [2,5]

Tarbiyalanuvchilar rivojlanish ko'rsatkichlari.

Bola rivoji – sifatning yakuniy natijasidir. Nutq, tafakkur, mayda va yirik motorika, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va ijodkorlik kompetensiyalari asosiy indikator sifatida qoraladi. [3,6] Maktabgacha ta'lim sifatini baholash mezonlari zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan boyitilgani sari ta'lim jarayonining samaradorligi va shaffofligi yanada ortadi. Shu bois, sohada sifat kafolatini ta'minlash tizimi muntazam takomillashtirilishi zarur. Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda davlat tomonidan belgilangan me'yorlar, standartlar va metodik yo'riqnomalarning izchil qo'llanishi katta ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuv shuni ko'rsatadiki, sifatni yuqori darajada ta'minlash uchun nafaqat pedagoglarning kasbiy mahorati, balki boshqaruvning samarali modeli, aniq monitoring tizimi va ota-onalar ishtirokining doimiyliigi ham muhim omillar sifatida qoraladi.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda quyidagi omillar ustuvor:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik baza yangilanishi, rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, STEAM elementlari, sensorik markazlar, ekologik zonalar tashkil etilishi bolalarning ko'p tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy standartlar aynan muhitni rivojlantiruvchi resurs sifatida talqin qiladi. Ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb qilingani sifat ko'rsatkichlaridan biri

hisoblanadi. Ular bilan doimiy uchrashuvlar, maslahatlar, ochiq mashg'ulotlar o'tkazilishi bolaning uy-maktabgacha ta'lim bog'chasidagi rivojlanishini uyg'unlashtiradi. Sifat monitoringi faqat ichki baholashdan iborat bo'lib qolmay, tashqi ekspertiza, mahalla va ota-onalar fikri, elektron monitoring natijalari, bolalarning rivojlanish portfoliolari bilan ham boyitilishi lozim. Maktabgacha ta'lim sohasida samaradorlikni belgilovchi asosiy omil bu — tarbiyachining kasbiy darajasidir. Treninglar, seminarlar, yangi metodik qo'llanmalar bilan ishlash, tadqiqotga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etish zamonaviy sifat kafolatining ajralmas qismi hisoblanadi. PF-14 farmonida qayd etilganidek, har bir sohada natijadorlikka erishish uchun inson omili markazga qo'yiladi. Bu maktabgacha ta'limda esa bola manfaatiga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy standartlar va aniq belgilangan baholash mezonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. PF-14-son Farmonida ilgari surilgan boshqaruvni optimallashtirish, raqamlashtirish va samaradorlik tamoyillari maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda ham qo'llanishi natijasida sifat monitoringi kuchayadi, ta'lim jarayoni shaffoflashadi va bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sifatni ta'minlash tizimini muntazam takomillashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali maktabgacha ta'lim sohasi yanada samarali rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash samaradorligi – davlat tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar, zamonaviy standartlar va baholash mezonlarining amaliyotda to'liq joriy etilishi bilan belgilanadi. PF-14-son Farmonida ko'rsatilgan boshqaruvni soddalashtirish, tizimni optimallashtirish va raqamlashtirish talablari maktabgacha ta'lim sohasida ham sifat monitoringining ancha yuqori darajaga ko'tarilishiga imkon yaratadi.

Bunday sharoitda sifat kafolati tizimi quyidagi natijalarni beradi:

ta'lim jarayonida shaffoflik kuchayadi;

bolalar individual rivoji aniq kuzatib boriladi;

pedagogik jarayon samaradorligi oshadi;

ota-onalarning ta'limga ishonchi mustahkamlanadi;

ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyati yuksaladi.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy mexanizmlari kompleks yondashuvni, ilmiy asoslangan metodikani va tizimli monitoringni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-14-son Farmoni – T.: Lex.uz.
2. Isxakova M.R. Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy metodikalarning o'rnini. //Inter education & global study. 2024. №8 B.362-370
3. Karimova, D. (2021). *Maktabgacha ta'limda sifat menejmenti*. Toshkent: Fan. 45–62-s.
4. Hasanboyeva, O. (2022). *Bolalar rivojlanishini monitoring qilish asoslari*. Toshkent. 28–40-s
5. Sharipova, M. (2021). *Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent. 95–112-s.
6. Ochildiyev, M. (2020). *Maktabgacha ta'lim metodikasi va baholash standartlari*. Buxoro: BMT nashriyoti. 73–s.
7. Abdullayeva, R. (2022). *Maktabgacha ta'lim muhitini rivojlantirish va baholash*. Toshkent. 58–76-s
8. Yo'ldosheva, G. (2020). *Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyalari*. Samarqand. 31–51s